


Dastlabki ma'lumotlar**2023-yilning yanvar–mart oylarida Samarqand viloyatining
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5 113,4 mlrd. so'mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,8 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 4 884,4 mlrd. so'm (103,1 %)ni, o'rmon xo'jaligi 224,5 mlrd. so'm (95,8 %)ni, baliqchilik xo'jaligi 4,5 mlrd. so'm (106,8 %)ni tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,6 foizni tashkil etdi.

**5 113,4****Samarqand viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm****01****4 884 ,4****Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar****02****224,5****O'rmon xo'jaligi****03****4,5****Baliqchilik xo'jaligi**

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish surʼati, foizda




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, foizda



2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 95,5 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 4,4 foizi o'rmon xo'jaligi, 0,1 foizi baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023-yilning yanvar-mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (652,2 mlrd. so'm) va Toyloq (505,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on (19,0 mlrd. so'm) va Samarqand shahar (25,2 mlrd. so'm)larini keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan yuqori o'sish sur'atlari Toyloq (109,7 %), Oqdaryo (109,3 %), Nurobod (107,6 %) va Jomboy (107,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari, foizda




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibi

2023-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4 832,5 mlrd. so'mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 166,7 mlrd. so'm (87,9 %)ni, chorvachilik mahsulotlari 4 665,8 mlrd. so'm (103,6 %)ni tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, foizda



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, foizda




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda xo'jaliklarning ulushi, foizda



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 88,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 1,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, foizda




2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toyloq tumanida (33,2 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahrida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand shahrida (58,0 %) qayd etildi.

Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, foizda



yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,
foizda




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2,0 ming tonna sabzavotlar (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 39,5 foizga kam) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 78,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Samarqand viloyati hududlari kesimida **sabzavot** yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2023-yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hajmi 4 665,8 mlrd. so'mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,6 foizni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 96,5 foizni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2023-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 67,8 ming tonna go'sht (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 6,2 foizga ko'p), 284,8 ming tonna sut (3,2 foizga ko'p) etishtirildi, 200,5 mln. dona tuxum (2,7 foizga ko'p) olindi va 166,2 tonna baliq (32,8 foizga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, foizda



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi,
foizda




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 67,8 ming tonna go'sht (2022-yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 6,2 foizga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmining 87,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Samarqand viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, foizda



**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 284,8 ming tonna sut (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,2 foizga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmining 94,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyatining
hududlari bo'yicha
yetishtirilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati, foizda



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi,
foizda




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 200,5 mln. dona tuxum (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 7,2 foizga kam) yetishtirilgan. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmining 49,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Samarqand viloyatining hududlari
bo'yicha **tuxum** yetishtirish
hajmi, ming dona**




Baliqchilik


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, foizda




**Ovlangan baliqni
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 166,2 tonna (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 32,9 foizga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmining 54,2 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Samarqand viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni, o'sish sur'ati, foizda




2023-yining 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,3 foizi fermer xo'jaliklari, 94,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari va 0,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 6,1 foizi fermer xo'jaliklari, 89,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va 4,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 13,8 foizi fermer xo'jaliklari, 84,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va 1,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 36,4 foizi fermer xo'jaliklari, 48,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari va 15,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.


2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 641,4 ming taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollarning bosh soni 29,2 mingta (1,8 %) ga ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, foizda



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




Samarqand viloyati bo'yicha **yirik shoxli** **qoramollarning** umumiy bosh soni, ming boshda




2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 698,4 mingtaga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 18,7 ming ta (2,8 %)ga ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, foizda




**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, sigirlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 94,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




Samarqand viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming boshda




2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 533,3 ming taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 49,8 ming ta (2,0 %)ga ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, foizda



Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 89,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




**Samarqand viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming boshda**




2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 27 751 taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 570 ta (0,2 %)ga ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati, foizda



Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, otlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 84,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




Samarqand viloyati bo'yicha **otlarning** umumiy bosh soni, boshda




2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 12 247,5 mingtaga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 201,7 mingta (1,7 %)ga ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, foizda




Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, parrandalarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 48,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Samarqand viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming boshda**



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• (66) 235-22-01